

12-1-2018

SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP AND FACTORS OF IMPROVING EMPLOYMENT OF POPULATION

A. Mutalipov
Tashkent Financial institute

J. Abdullaev
Tashkent Financial institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Mutalipov, A. and Abdullaev, J. (2018) "SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP AND FACTORS OF IMPROVING EMPLOYMENT OF POPULATION," *International Finance and Accounting*: Vol. 2018 : Iss. 5 , Article 1.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss5/1>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

Mutalipov A. – TMI, o'qituvchi
Abdullaev J. – TMI, talaba

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI VA AHOLIBANDLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Maqolada aholining ish bilan bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorning roli, bu boradagi rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan va tegishli tavsiyalar berilgan.

Tayanch soʻzlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, yalpi ichki mahsulot, aholining ish bilan bandligi, investitsiya.

В статье рассматривается роль малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии этой области и предлагаются соответствующие рекомендации по улучшению занятости населения.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, валовой внутренний продукт, занятость населения, инвестиции.

The article examines the state of the small business and private entrepreneurship, the development of this area and provides relevant recommendations to improve the employment of the population.

Key words: Small business, entrepreneurship, gross domestic product, population employment, investment.

Kirish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishi aholi turmush darajasini tubdan o'zgartirish, yaxshilashni talab etadi. Bu masalalar mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi, yangi ish o'rinlarini yaratish mexanizmlari, hududlar aholisini ish bilan band etishning yangi shakllarini baholash usullarini takomillastirilishini talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida aholi bandligini ta'minlash hamon dolzarb masala bo'lib turganligi quyidagicha ta'kidlandi: "...Yil davomida biz uchun g'oyat muhim bo'lgan yangi ish o'rinlarini tashkil etish masalasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. 2017 yilda yangi sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko'rsatish ob'ektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etildi. O'z-o'zidan ayonki, biz aholi bandligini ta'minlashni o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, bu masalaga nafaqat son, balki sifat jihatidan ham alohida ahamiyat berishimiz zarur". Boshqacha qilib aytilganda natijalarning aniq sifat ko'rsatkichlarini belgilash ustuvor ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratildi [1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Olib borilgan tadqiqotlar aholining ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini metodologik jihatdan tatbiq etish zarurligi, ahamiyati bu boradagi islohotlarda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiyalash jarayonida aholining ish bilan bandligini

boshqarish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi, birinchi navbatda, mazkur tushunchaning kontseptual yondashuvlarini tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Shu o'rinda ish bilan bandlik bo'yicha kontseptual yondashuvlar quyidagilardan iborat: klassik maktab vakillari A.Smit, D.Rikardo, T.Maltus mehnat bozori to'g'risidagi ta'limotning nazariy asoschilari, neoklassik maktab vakillari A. Marshall, J. Mill, A.Pigu mehnat bozori hamda narx-navo muvozanati asosida amal qilishi, ishchi kuchi bahosi esa bozorni muvofiqlashtirish nazariyachilari hisoblanadi, ish bilan bandlikning zamonaviy nazariyachilari L.Bryu, K.R.Makkonell, P.Samuelsonlar esa mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlarini asoslaganlar [2]

A.Komarov, S.Bogdanova, A.Lichnov ilmiy ishlarida inqirozdan keyingi davrda kichik tadbirkorlik va mehnat bozorida barqarorlashtiruvchi jarayonlar dinamikasi tahlil qilingan [3].

A.Bondyasheva, N.Zemlyanuxina o'z tadqiqotlarida davlatning iqtisodiy faol aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash, mehnat faoliyatini samarali tashkil etish, shuningdek, samarali bandlik ko'rsatkichlariga kichik biznesning ta'siri masalalariga e'tibor qaratganlar [4].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shilgan holda ta'kidlash lozimki, aholining ish bilan bandligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini jadal rivojlantirish hisobiga hududlarda yangi ish joylarini yaratish, mavjud ish joylarini saqlab qolishning innovatsion yondashuvlarini talab qiladi.

Tahliliy natijalar


Mamlakatda kichik biznes rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi tufayli, aholining ishbilarmonlik qobiliyati kengayishi, yoshlarda tadbirkorlik tashabbusi ortishi kuzatilmoqda. Bu jihatlar o'z navbatida, istiqbolli taklif va tashabbuslarni o'z vaqtida rag'batlantirishga katta yo'l ochib bermoqda. Natijada, ish bilan band aholining aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa ortmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojiga keng yo'l ochib berilganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lish bilan birga, iqtisodiyotni izchil rivojlantiruvchi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylandi.

Bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiyot rivojlanishiga, aholining hayot darajasi va sifati izchil o'sishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Daromadlar ortib borishi esa, o'z navbatida, oilalarning moddiy ahvolini sifat jihatdan o'zgartiryapti. Bu eng muhim, ta'bir joiz bo'lsa, ustuvor ahamiyatga ega. Bunda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini bermoqda. Bugungi kunda respublikamizda sanoatdan tortib qurilish sohasigacha, ishlab chiqarishdan boshlab savdogacha faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) 229666 tani tashkil etadi.

Respublikamizda tadbirkorlik sohasini jadal rivojlanib borayotgani, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini keskin oshishi ijtimoiy iqtisodiy muammolarni hal etishda, ya'ni aholini ish bilan ta'minlash, ularning real daromadlarini ko'paytirish, aholining barcha qatlamlarini turmush farovonligini yaxshilash imkonini bermoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlik eng ilg'or va tez rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo'lganligi sababli mamlakatimizda so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining YaIMga nisbatan ilg'or o'sishi ta'minlanishi natijasida iqtisodiyotda ushbu tarmoqning hissasi oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlar va chora-tadbirlar natijasida YaIMdagi ulushi sezilarli darajada oshdi. Ushbu ko'rsatkich 2000 yilda 37,0 %, 2017 yilda 53,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yil 3-chorak natijalariga ko'ra 55,2 % ni tashkil etmoqda[5].

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tahlilini mamlakatlar kesimida ko'radigan bo'lsak 2017-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 53.3 foizni yoki 119301 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Fransiyada 62 foizni, Italiyada - 60 foizni, Yaponiyada - 55 foizni, Germaniyada - 54 foizni, Buyuk Britaniyada - 53 foizni, AQShda - 52 foizni, Qozog'istonda - 25,6 foizni, Rossiyada – 20,0 foizni tashkil etadi.(1-rasm)



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatlar YaIMdagi ulushi(%)

Manba: jadval www.stat.uz O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlariga asosan tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur dasturda O'zbekiston Respublikasida istiqbolda tadbirkorlik sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanadi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning

faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni har tomonlama muhofaza qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlarini bekor qilish;

- davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish xarajatlarini kamaytirish, masofaviy nazoratni keng joriy etish va soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirishni ta'minlaydigan soliq ma'murchiligi sifati va samaradorligini yanada yaxshilash;

- tadbirkorlik subyektlari faoliyati yuzasidan qisqa muddatli tekshirishlarni tayinlash va o'tkazishning aniq huquqiy asoslari hamda mezonlarini nazarda tutgan holda qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish;

- bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, davlat organlari tomonidan tijorat banklari faoliyatiga, birinchi navbatda, kredit siyosatiga ma'muriy aralashuvlarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik;

- fuqarolar va tadbirkorlarning, eng avvalo, davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga, shuningdek, korrupsiya tusidagi huquqbuzarliklarning oldini olish;

- barcha texnik talablarni (sanitariya, ekologiya, shaharsozlik normalari va qoidalari, yong'in xavfsizligi qoidalari, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar va texnik normativlarni) xatlovdan o'tkazsin hamda ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda samarasiz, eskirgan va bozor mexanizmlarining o'rnini egallab olgan normalarni bartaraf etadigan tegishli normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish [6];

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mamlakatimiz iqtisodiyoti amalda o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Natijada sanoat tarmoqlari, soliq-byudjet tizimi, bojxona va valyuta siyosatida chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi, yanada qulay muhit yaratildi.

Xususan, 2018 yilning yanvar-sentyabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 2000-yilda 12,9% ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda yanvar-sentabrda ushbu ko'rsatkich 34,2% ni tashkil etdi, qishloq xo'jaligida – 98,5% ni, qurilish sohasida - 68,8% ni, xizmatlarda – 55,4 % ni, chakana savdo aylanmasida - 88,6% ni tashkil etdi. Kichik biznesning mamlakat umumiy eksportidagi ulushi oxirgi 15 yilda 3 marotaba oshgan va bugungi kunda 20,7%ni, importda - 52,2% ni, investitsiyada esa – 35,5% ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi 2000 yilda 49,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 64,8 %ni, 2010 yilda 74,3 %ni, 2018 yilda esa 78,3% ni tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 28,6% birlikka oshgan 2018 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi 78,3% ni tashkil etgan. Shundan 61,9 % ni yakka tartibdagi tadbirkorlikda band bo'lganlar tashkil etsa, 16,3 % ni kichik korxonalar va mikro firmalarda band bo'lganlar tashkil etadi[7].

Shu bilan bir qatorda kichik biznes salohiyatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan muammolarni ta'kidlab o'tishimiz lozim. Kichik biznes sub'yektlari sonining savdodagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda (jami kichik biznes sub'yektlarining 26,7% yoki 63,7 mingta sub'yekt). Chakana savdo tovar aylanmasida esa, 20,2%ni kichik biznes va mikrofirmalarning ulushi tashkil etgan bo'lsa, yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi 69,4% ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin, bu bank sektoriga pul tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kichik biznes sub'yektlarining soliq solinadigan bazasida nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi. Hududlar kesimida kichik biznes sub'yektlari sonini qaraydigan bo'lsak eng ko'p sub'yekt Toshkent shahrida (22,6%), Toshkent (9,6%), Farg'ona (8,8%) va Andijon (8,7%) viloyatlarida o'z faoliyatini yuritishmoqda. Bu to'rt hududda kichik biznes sub'yektlarining umumiy sonining 50%i atrofida o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, Sirdaryo (3,2%), Navoiy (3,3%) va Jizzax (4,2%) kabi respublikamizning boshqa viloyatlarida kichik biznes sub'yektlarining mavjud potensialidan yetarli darajada foydalanilmayotganidan darak bermoqda. Mazkur sohani rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi qo'shimcha choratadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz: aholining xizmatlar ko'rsatish, ulardan foydalanish va qoniqish sohasidagi bilim va malakalarini yanada o'stirish, mahallalarda kasanachilik, hunarmandchilik, novoychilik, qandolatchilik, chorvachilik, parrandachilik va boshqa sohalarni keng rivojlantirish, mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda, bandlik va mehnat munosabatlari tuzilmalarining yordami bilan mehnatga layoqatli vaqtincha ish bilan band bo'lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash, xizmat ko'rsatish infratuzilmasini keng rivojlantirish hisobiga aholining turmush farovonligini oshirishga erishish.

Xulosa va takliflar

Tadbirkorlik sohasida yangi ish o'rinlari tashkil etish, investitsiya, soliq, pul-kredit va ilmiy-texnikaviy siyosatni takomillashtirish, bozor xizmatlarining tarmoq tuzilmasida innovatsion tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu xizmatlar ko'rsatish aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirilishini ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishi mazkur sohaning jadal rivojlanishini ta'minlamoqda. Imtiyozli kreditlarning maqsadli yo'naltirilishi faqatgina shahar joylarida emas, balki qishloq hududlarida ham kichik tadbirkorlikning bozor

xizmatlari ishlab chiqarishi umumiy hajmining oshib borishi, ishga joylashishga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bozorida zamonaviy infratuzilma va raqobat muhitini yaratishda, aholining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirishda amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

“O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dastur”ga asoslanib, xizmat ko'rsatish sohalarida xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida yangi ish joylarini yaratish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni tavsiya qilish mumkin:

- yangi turdagi ishbilarmonlik (kasbiy) xizmatlari ko'chmas mulk bilan savdo qilish, vaqtinchalik erkin pullarni joylashtirish, axborot, marketing va reklama xizmatlari, buxgalteriya balansi va hisobotlarini tuzish, elektron kotiba;
- turistik firmalari, axborot kommunikatsion texnologiya vositalarini tuzatish tayanch punktlari, ijtimoiy psixologik markazlar, turli ta'lim va kasbga o'qitish qisqa kurslari kabi xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish.
- xizmat ko'rsatish sohalarida alohida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini yaratish lozim;
- hayvonlarga qarash bo'yicha xizmatlar – hayvonlarni boqish;
- bolalarni tarbiya qilish, o'qitish bo'yicha xizmatlar, xususiy bog'cha va maktablar, oilaviy bolalar bog'chalari, oilaviy kutubxonalar va boshqa xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [http:// www.Lex.uz](http://www.Lex.uz).

2. Петти В., Смит А., Рикардо В., Кейнс Дж., Кейнс М., Фримен М. Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО-ПРЕСС. 2000.– 115 с.

3. Комаров А.Г., Богданова С.Ю., Личнов А.В. Малый бизнес изанятость в России и за рубежом. Проблем теории и практики предпринимательства. – 2011.№4. 40стр.

4. Бондяшева А.С., Землянухина Н.С. Управление занятостью: роль малого бизнеса в достижении эффективной занятости населения региона // Изв. Саратов. ун-та. Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право. 2016. Т. 16. вп. 4. С. 429-434.

5. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi. www.stat.uz

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni. http://uza.uz/uz/documents/tadbirkorlik_faoliyatining_jadal_rivojlanishini_ta'minlashga

7. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi. www.stat.uz